<i>Lutfullayeva Sadoqat Muzaffar qizi, Axmedova Zuxra Mirzabekovna</i>	
Metodlarning turlari va nazariy asoslari	948
<i>Murodova Durdona Rayimjon qizi, Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tizimli tafakkurini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash: pedagogik tajriba-sinov natijalari va matematik-statistik tahlil	952
<i>Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna</i>	
Raqamli texnologiya ta'limga imkoniyatmi yoki xavf?	960
<i>Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi</i>	
Zamonaviy sharoitlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti va unga qo'yilayotgan talablar	963
<i>Ortiqova Nargiza Akramovna, Suvonqulova Muxabbat Otamurot qizi</i>	
Interactive Grammar Learning Methods and their Significance for Non-Philological Education Students .	969
<i>Almatova Umida Islomovna</i>	
Berilganlar bazasi konsepsiyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari.....	975
<i>Nosirova Shohista Elmurodovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik ahamiyati.....	980
<i>Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna</i>	
Autentik matnlar orqali o'quvchilarda o'qishga motivatsiya shakllantirish	987
<i>Usmonova Gulhumor Qo'ldashboy qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida "Aralash ta'lim (Blended Learning)" texnologiyasining joriy etilishi.....	991
<i>Sh. D. Ablakulov</i>	
Ko'paytirish amalini o'rgatishga zamonaviy yondashuv (suv vositasida)	995
<i>Ismoilov Bobur Toxirovich</i>	
WEB dasturlash fanining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari.....	1000
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari	1005
<i>Sattorova Go'zalxon Mamadaminovna</i>	
Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
<i>Ismailov Murodulla Kahramonovich</i>	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
<i>Avazova Farangiz Ixtiyor qizi</i>	

Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodi.....	1022
<i>Xolboyeva Dilafuz Xayrulla qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish	1026
<i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish.....	1030
<i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>	
Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi	1035
<i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv	1040
<i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>	
Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari	1043
<i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>	
Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish	1047
<i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli.....	1051
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuhamadovna</i>	
Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari	1055
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>	
Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati	1060
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi	1064
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning realistik karakter yaratish mahorati.....	1070
<i>Nortojiyev Muxammad</i>	
Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari	1073
<i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>	
O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati	1078
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi.....	1083
<i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>	
Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1087
<i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>	
"Taskari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi	1093
<i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>	
Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration.....	1096
<i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni	1101
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida	1105
<i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	1110
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish	1114
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish	1118
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi.....	1123
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>	



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiyeva Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bekmurodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
Tarbiya darolarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish.....	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuriddinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abduvahobovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinovna	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohiba Muxtoralievna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	



BO'LG'USI PEDAGOGLARDA ESTETIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Bozorova O'g'iloy Komilovna
Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika nazariyasi va amaliyotining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida tahlil qilinadi. Estetik idrok, badiiy tafakkur, ijodiy faoliyat va estetik baholash kabi tarkibiy komponentlarning pedagog shaxsining kasbiy shakllanishidagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning estetik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi art-pedagogik yondashuvlar, ijodiy ustaxona mashg'ulotlari, ko'rgazmalar, loyiha hamda portfolioga asoslangan ta'lim texnologiyalarining samaradorligi ochib beriladi. Shuningdek, tasviriy va amaliy san'atni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati hamda normativ-huquqiy hujjatlarning ta'lim jarayoniga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: estetik kompetensiya, bo'lajak pedagog, art-pedagogika, ijodiy faoliyat, estetik tarbiya, badiiy ta'lim.

Abstract: This article examines the development of aesthetic competence in future teachers as one of the key areas of modern pedagogical theory and practice. The study substantiates the importance of aesthetic perception, artistic thinking, creative activity, and aesthetic evaluation in the professional development of a teacher's personality. It highlights the effectiveness of art-pedagogical approaches, creative workshops, exhibitions, project-based learning, and portfolio-oriented educational technologies in enhancing students' aesthetic competence in higher education institutions. In addition, the impact of state policies in the field of fine and applied arts, as well as relevant regulatory documents, on the educational process is scientifically analyzed.

Key words: aesthetic competence, future teacher, art pedagogy, creative activity, aesthetic education, art education.

Аннотация: В статье развитие эстетической компетентности будущих педагогов рассматривается как одно из актуальных направлений современной педагогической теории и практики. Научно обоснована роль эстетического восприятия, художественного мышления, творческой активности и эстетической оценки в профессиональном становлении личности педагога. Раскрыта эффективность арт-педагогических подходов, творческих мастерских, выставочной деятельности, проектных и портфолио-ориентированных образовательных технологий в формировании эстетической компетентности студентов высших учебных заведений. Проанализировано влияние государственной политики в сфере изобразительного и прикладного искусства, а также соответствующих нормативно-правовых документов на образовательный процесс.

Ключевые слова: эстетическая компетентность, будущий педагог, арт-педагогика, творческая деятельность, эстетическое воспитание, художественное образование.

KIRISH

Estetik kompetensiya – bu pedagogning san'at, madaniyat va go'zallikka oid bilim, ko'nikma hamda qadriyatlarini shakllantirish qobiliyati bo'lib, u bo'lajak pedagogning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida markaziy ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning estetik kompetensiyasini rivojlantirish, avvalo, ularning ijodiy fikrlashi va badiiy tafakkurini boyitish, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarini anglash va ularni tarbiyaviy jarayonda samarali qo'llash imkonini yaratadi. Badiiy tafakkur va estetik didning shakllanishi shaxsning ma'naviy yetukligi, emotsional intellekti hamda ijodiy faoliyatining rivojlanishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, pedagogning estetik kompetensiyasi nafaqat uning shaxsiy rivojlanishida, balki u tomonidan ta'lim va tarbiya olayotgan talabalarning estetik tafakkuri, ijodiy salohiyati va madaniy didini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat estetik kompetensiyani oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon qiladi.

Respublikamizda Yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida asosiy tayanch hisoblangan azmu shijoatli yoshlarga alohida e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarda o'z

iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning intellektual va ma'naviy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda ularning jamiyatda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar bilan uyg'un holda amalga oshirilmoqda. Shuningdek, zamonaviy ta'lim dasturlari, innovatsion loyihalar va yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirishga qaratilgan tashabbuslar orqali ularning faolligi hamda ijtimoiy mas'uliyati izchil oshirib borilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bu jarayonda yosh avlodning estetik dunyoqarashini hamda badiiy-ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy-tarbiyaviy ishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarning estetik kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lib, ularning kasbiy faoliyatida nafaqat bilimga, balki yuksak madaniyat va badiiy didga ega bo'lishini talab etadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida estetik kompetensiyaga ega pedagog har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Shu bois, pedagogik ta'lim muassasalarida estetik ta'lim mazmunini takomillashtirish, badiiy-amaliy faoliyat turlarini o'quv jarayoniga integratsiyalash, talaba-yoshlarda ijodiy fikrlash hamda san'atni anglash qobiliyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida qo'yilmoqda.

Ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va badiiy-estetik rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri estetik kompetensiyadir. Estetik kompetensiya ko'plab tadqiqotchilar tomonidan shaxsning estetik idroki, badiiy tafakkuri, estetik baholash qobiliyati hamda ijodiy faoliyati birligidan tarkib topgan murakkab integrativ sifat sifatida izohlanadi.

Estetik idrok shaxsning borliqdagi go'zallikni sezish, uni his etish va ruhiy-emotsional jihatdan qabul qilish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Vikipediya manbasida estetik idrok inson (subyekt) yoki jamiyatda kechadigan, ruhning asosiy qobiliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan, estetik qiymatga ega obyektga yo'naltirilgan fundamental jarayon sifatida izohlanadi ^[9]. Bunda estetik idrok estetik baholashning asosiy manbai va sharti bo'lib, u faqat bevosita (ko'rish, sezish orqali) amalga oshishi, ma'lum ijtimoiy-madaniy doirada yuz berishi hamda idrok jarayoni jamiyatning madaniy-tarixiy sharoiti, shuningdek, shaxsning individual didi va afzalliklari bilan ma'lum darajada belgilangan bo'lishi qayd etiladi ^[9].

Estetik idrokning obyekti sifatida tabiiy yoki ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan istalgan narsa namoyon bo'lishi mumkin. Imanuel Kant ta'limotiga ko'ra, biror narsani chinakam estetik qabul qilish faqat unga nisbatan manfaat (istak yoki ehtiyoj) bo'lmagan taqdirdagina mumkin bo'lib, aynan shunday holatda estetik tuyg'u yuzaga keladi ^[6].

L.S. Vigotskiy estetik idrokni "san'at asarini sezgi, hissiyot va tafakkur orqali bir butun holda anglash jarayoni" sifatida izohlab, uning shaxsning emotsional-intellektual rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi ^[8].

Badiiy tafakkur estetik idrokning davomiy bosqichi bo'lib, san'at, tasviriy obrazlar va badiiy ifodalar orqali voqelikni talqin qilish hamda mazmunan qayta yaratish jarayonini anglatadi. Badiiy tafakkur obrazli fikrlashning yuqori shakli bo'lib, unda shaxsning tasavvuri, emotsional holati va intellekti uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Estetik baholash esa shaxsning san'at va borliqdagi hodisalarga nisbatan o'z estetik mezonlari asosida munosabat bildira olishi, go'zallik, uyg'unlik va badiylikni shaxsiy qadriyatlar kontekstida baholay bilish qobiliyati sifatida qaraladi.

Ijodiy faoliyat estetik kompetensiyaning eng faol tarkibiy qismi bo'lib, shaxsning estetik idrok va badiiy tafakkur asosida yangi badiiy obrazlar, g'oyalar yoki san'at mahsulotlarini yarata olishini ifodalaydi.

Shunday qilib, shaxsda estetik kompetensiya quyidagi komponentlar majmuasidan tashkil topadi:

- estetik idrok – go'zallikni sezish va qabul qilish qobiliyati;
- badiiy tafakkur – obrazli, san'atga xos fikrlash;
- estetik baholash – badiiy hodisalarga munosabat bildirish va baholay olish;
- ijodiy faoliyat – estetik va badiiy tajribaga asoslangan ijodiy ifoda.

Mazkur qarashlar estetik kompetensiyaning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini ham belgilab, uni bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida chuqur va bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Estetik kompetensiya bo'lajak pedagogning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida markaziy o'rin tutadi. Pedagogning estetik kompetensiyasi uning nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy jarayonda badiiy did, ijodiy tafakkur va estetik qadriyatlarni talabalarga yetkazish qobiliyati bilan ham bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, estetik kompetensiya pedagog shaxsining kasbiy mahorati va tarbiyaviy samaradorligini belgilovchi integrativ sifat sifatida qaraladi ^[7].



Bugungi kunda oliy ta'limda bo'lajak pedagoglarning estetik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi jamiyatning ma'naviy va madaniy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik muammo sifatida e'tibor qaratishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son¹ Farmoni mazkur yo'nalishda ilmiy-pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu strategiyaning 71-76-maqсадlarida milliy ma'naviyat va madaniy merosni asrab-avaylash, aholi, xususan, yoshlar o'rtasida badiiy-estetik didni rivojlantirish, tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn sohalari rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, farmonda "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali ma'naviy tarbiya jarayonini interaktiv va samarali tashkil etish, milliy qadriyatlarni keng targ'ib etishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar nazarda tutilgan^[5].

Mazkur strategik vazifalar pedagogik amaliyotga bevosita ta'sir ko'rsatib, bo'lajak pedagoglarning tasviriy va amaliy san'at vositasida milliy va umuminsoniy estetik qadriyatlarni idrok etishi, ijodiy tafakkurini rivojlantirishi hamda estetik didini shakllantirishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son² Farmonida ham talabalarning kreativ fikrlashi, ijodiy qobiliyatlari va madaniy-ma'rifiy dunyoqarashini rivojlantirish oliy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qayd etilgan. Konsepsiyada "talabalarning ijodiy fikrlashi va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish" vazifasi belgilangan bo'lib, bu bo'lajak pedagoglarda estetik idrok, badiiy tafakkur, tasviriy va badiiy jarayonlarga nisbatan qiziqish kabi estetik kompetensiyaning asosiy komponentlarini shakllantirish uchun muhim normativ asos hisoblanadi. Ijodiy muhitning mavjudligi talabalarning san'at hodisalarini anglash, baholash va estetik fikrlashini rivojlantirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi^[4].

Shuningdek, mazkur Konsepsiyada talabalarning ma'naviy yetukligi va madaniy qadriyatlarni anglashini ta'minlashga qaratilgan tarbiyaviy faoliyat alohida ta'kidlanib, bu holat estetik kompetensiyaning ma'naviy-madaniy omillar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Madaniy qadriyatlarga hurmat, san'atning tarbiyaviy imkoniyatlarini anglash hamda badiiy-estetik ehtiyojlarning shakllanishi bo'lajak pedagoglarning estetik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son³ qaroriga ilova sifatida tasdiqlangan "Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi" ham bo'lajak pedagoglarda estetik kompetensiyani shakllantirishning muhim normativ asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu Konsepsiyada madaniyat va san'at jamiyat taraqqiyotining ustuvor omili sifatida e'tirof etilib, zamonaviy pedagog shaxsini estetik jihatdan yetuk, badiiy didi shakllangan va ijodiy fikrlovchi mutaxassis sifatida tayyorlash zarurligi ta'kidlanadi.

Konsepsiyaning umumiy qoidalarida madaniyat va san'at ma'naviy boyliklarni avloddan avlodga yetkazuvchi, jamiyatni birlashtiruvchi hamda ijodkor shaxsni tarbiyalovchi muhim omil ekani ko'rsatib o'tiladi. Bu esa bo'lajak pedagoglarda estetik qabul qilish, badiiy tafakkur, san'at hodisalarini tahlil eta olish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni estetik idrok etish kabi kompetensiyalarni rivojlantirishning davlat darajasidagi dolzarbligini belgilaydi^[1].

TAHLIL VA NATIJALAR

Konsepsiyada qayd etilgan asosiy tamoyillardan biri – madaniyat va san'at sohasida ta'lim-tarbiyaning tizimlilik, ilmiyligi va davomiyligini ta'minlashdir. Ushbu tamoyil pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida estetik tarbiyaning uzviy tashkil etilishi, san'at ta'limining barcha bosqichlarda metodik jihatdan mukammal yo'lga qo'yilishi zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, ijod erkinligi, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, estetik xilma-xillikni qadrlash kabi yo'nalishlar bo'lajak pedagoglarning estetik kompetensiyasining mazmunini tashkil etadi.

Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlarida tasviriy va amaliy san'at, musiqa, raqs, teatr, kino, xalq ijodiyoti, dizayn, hunarmandchilik kabi sohalarning rivoji alohida ta'kidlanadi. Aynan ushbu yo'nalishlar bo'lajak pedagoglarning estetik dunyoqarashi, badiiy tafakkuri va san'atni baholash malakalarini keng rivojlantirish uchun metodik imkoniyatlar yaratadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmon: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmon: <https://lex.uz/docs/-4545884>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son qaror: <https://lex.uz/docs/-4084926>

Xususan:

- tasviriy va amaliy san'at – rang, shakl, kompozitsiya hamda milliy bezaklar orqali estetik idrokni kuchaytiradi;
- musiqa va raqs – ritm, ohang va harakat estetikasi orqali hissiy madaniyatni rivojlantiradi;
- teatr va kino – obrazlilik, dramatik ifoda hamda badiiy fikrni idrok etish kompetensiyalarini shakllantiradi;
- nomoddiy madaniy meros – milliy estetik qadriyatlarni ongli qabul qilishni ta'minlaydi ^[1].

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarda estetik kompetensiyani shakllantirish masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida alohida e'tibor qaratishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasida samaradorlikni yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4688-son⁴ qarori badiiy-estetik kompetensiyani rivojlantirish uchun muhim normativ-huquqiy asos yaratadi. Mazkur qarorda tasviriy va amaliy san'at sohalarida milliy merosni tiklash, Kamoliddin Behzodning boy ijodiy merosini yosh avlodga yetkazish, oliy ta'limdan keyingi kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish bilan bog'liq chora-tadbirlar belgilangan. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak pedagoglarning estetik didi, badiiy idroki va ijodiy salohiyatini shakllantirish art-pedagogik vositalar orqali amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifa sifatida namoyon bo'ladi ^[2].

Qarorda ta'kidlangan tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar – xususan, Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini joriy etish, "Kamoliddin Behzod izdoshlari" ijodiy tanlovini tashkil etish, oliy ta'lim muassasalarida tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarini tashkil etish – bo'lajak pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish uchun mustahkam amaliy zamin yaratadi. Ushbu chora-tadbirlar orqali talabalar tasviriy va amaliy san'at asarlari yordamida milliy hamda umuminsoniy badiiy qadriyatlarni anglash, ijodiy tafakkur va estetik didni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, qarorda belgilangan rassomlik mahorat ustaxonalari va markazlar faoliyati pedagoglar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan "ustoz-shogird" an'analarni uyg'unlashtirish orqali ta'lim jarayonida badiiy-estetik kompetensiyani mustahkamlash imkonini yaratadi. Bu esa oliy ta'limda bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida san'at va go'zallikni targ'ib etish, talabalarni ijodiy fikrlashga yo'naltirish hamda estetik baholash ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim pedagogik vosita hisoblanadi ^[2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-iyuldagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-212-son⁵ qarori tasviriy va amaliy san'at sohasini rivojlantirish hamda bu orqali oliy ta'lim muassasalari talabalarining estetik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi ^[3].

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining estetik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish badiiy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga zamonaviy pedagogik metodlar, san'at nazariyasi va amaliy ko'nikmalarni integratsiyalagan kompleks ta'lim berilishi ta'minlanadi.

Eng iste'dodli talabalar va yosh pedagoglar xorijiy davlatlarda malaka oshirish hamda stajirovkadan o'tish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning zamonaviy san'at va pedagogik metodlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ustoz-shogird an'analari asosida tarbiyalanish, pedagog va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi kadrlar uchun mehnat haqi hamda qo'shimcha rag'batlantirish tizimining joriy etilishi talabalarining estetik va ijodiy kompetensiyasini yanada mustahkamlaydi ^[3].

Estetik kompetensiya – bu pedagogning san'atga, madaniyatga va insoniy didga oid bilim, ko'nikma hamda qadriyatlarni shakllantirish qobiliyatidir. Hozirgi davrda bo'lajak pedagoglarni mazkur kompetensiya bilan ta'minlash, ularni milliy madaniyat va san'atga hurmat ruhida tarbiyalash eng dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son Qarori pedagogik jarayonlarda estetik kompetensiyani shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Qarorda ta'lim muassasalarida milliy musiqa cholg'ularida ijro etish, tasviriy va amaliy san'at mashg'ulotlari, amaliy to'garaklar, lektoriy-konsertlar hamda "mahorat maktablari"ni tashkil etish orqali talabalar va o'quvchilarni san'atga faol jalb etish vazifasi belgilangan. Bu holat bo'lajak pedagoglarda estetik didni rivojlantirish, milliy va jahon madaniyatini chuqur anglash hamda san'at vositasida tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasida samaradorlikni yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4688-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4795687>

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-iyuldagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-212-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-7611797?query=O%27zbekiston%20Milliy%20axborot%20agentligi>



Shuningdek, qarorda pedagoglar va talabalarning ijodiy faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, jumladan, maxsus notalar, musiqa cholg'ulari, audiovizual materiallar, amaliyot uchun avtotransport vositalari bilan ta'minlash, budget va jamg'arma mablag'lari hisobidan moddiy rag'batlantirish tizimini joriy etish ko'zda tutilgan. Bu bo'lajak pedagoglarning professional o'sishi hamda estetik kompetensiyasini amaliy faoliyat jarayonida mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, art-pedagogika asosida bo'lajak pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- milliy va jahon madaniyati elementlarini o'zlashtirish orqali shaxsiy estetik didni shakllantirish;
- musiqa va tasviriy san'at vositasida ta'lim jarayonida did va estetik qadriyatlarni uyg'unlashtirish;
- pedagogning shaxsiy ijodiy faoliyati bilan talabalarning ijodiy rivojlanishini uyg'unlashtiruvchi amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- davlat va jamoat resurslaridan samarali foydalanish orqali pedagoglarning estetik kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirish.

Bo'lajak pedagoglarda estetik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligi alohida ahamiyatga ega. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida pedagoglarning estetik va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy yo'nalishlar samarali hisoblanadi:

- **ijodiy ustaxonalar va laboratoriyalar:** talabalar uchun tasviriy va amaliy san'at ustaxonalari tashkil etilib, ularda turli materiallar va texnikalar bilan ishlash orqali estetik idrok va badiiy tafakkur rivojlantiriladi;
- **ijodiy loyihalar va ko'rgazmalar:** shaxsiy va jamoaviy ko'rgazmalar talabalarning estetik baholash qobiliyati va badiiy fikrlash salohiyatini mustahkamlaydi;
- **innovatsion pedagogik metodlar va ta'lim texnologiyalari:** projektli o'qitish, keys-stadi hamda multimedia vositalari orqali ijodiy fikrlash rivojlantiriladi;
- **xalqaro hamkorlik va malaka oshirish:** xorijiy tajriba asosida bilim va ko'nikmalar kengaytiriladi;
- **moddiy va metodik resurslardan foydalanish:** galereyalar, multimedia markazlari va ustaxonalar faoliyatga jalb etilib, moddiy rag'batlantirish hamda ustoz-shogird an'analari asosida tarbiya yo'lga qo'yiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida estetik kompetensiyani rivojlantirishning amaliy yo'nalishlari nafaqat nazariy bilimlarni qo'llashni, balki ijodiy faoliyat orqali uning barkamol shakllanishini ham ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, pedagogik ta'lim muassasalarida estetik kompetensiyani rivojlantirishning dolzarbligi bir necha jihatlar bilan izohlanadi:

- **kasbiy samaradorlik:** pedagogning estetik kompetensiyasi uning bilim berish va tarbiya jarayonida badiiy tafakkur, madaniy did hamda estetik qadriyatlarni talabalarga yetkazish qobiliyatini belgilaydi;
- **shaxsiy rivojlanish:** estetik kompetensiya talabaning ijodiy salohiyati, emotsional va intellektual rivojlanishini ta'minlaydi, bu esa pedagogning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi;
- **ijtimoiy va madaniy ahamiyat:** bo'lajak pedagoglar orqali milliy va umuminsoniy estetik qadriyatlar, san'at va madaniyatga hurmat tarbiyalanadi, bu esa jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi;
- **amaliy yo'nalishlar:** estetik kompetensiya ustaxonalar, ko'rgazmalar, ijodiy loyihalar hamda innovatsion pedagogik metodlar orqali rivojlantiriladi, bu esa nazariy bilimlarni amaliyotda samarali qo'llash imkonini beradi.

Shu bilan birga, estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida nafaqat ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi, balki oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarning kasbiy va shaxsiy barkamol rivojlanishi uchun asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammoni samarali hal etish orqali pedagogik ta'lim muassasalari talabalarini zamonaviy, kreativ hamda badiiy didi rivojlangan mutaxassislar sifatida tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi "Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4688-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-iyuldagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-212-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-son Farmoni.
6. Kant I. Kritika chistogo razuma. 1788-yil. Riga.
7. Kuzin V.S. Esteticheskoe vospitanie uchashchikhsya. 1988.
8. Vigotskiy L.S. Psixologiya iskusstva. 1965.
9. Asadov, M. (2025-yil, iyul). Homo poetikus konsepsiyasi: Navoiy va Rumiy. Conferences, 1(1).
10. Asadov, M. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus' "The Stranger". American Journal of Philological Sciences, 5(03), 119–123.
11. Asadov, M. (2023). Sizif haqida mif: Kamyu va Xurshid Do'stmuhammad. Conferences, 1(1).
12. Asadov, M. T. (2022). Existential interpretation of the motive of "loneliness" in the work "The Stranger" by Albert Camus. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(2), 1–6.
13. Turaevich, A. M. (2022-yil, yanvar). Loneliness and absurdity as the basis of Albert Camus' concept of art. European Journal of Science Archives Conference Series, 2013, 30.
14. Kosimovna, A. R. (2022). On the role and importance of stylistics in linguistics. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(4), 206–208.
15. Abdurakhmanova, R. K. (2015). Hermeneutical and pragmalinguistic category of deixis. Nauka i mir, (10–2), 10–12.
16. Kosimovna, A. R. UDK: 81.39. Paradigmatic properties of deictic units in the text.
17. Vikipediya: <https://ru.wikipedia.org>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.